SIYRAT DAVRI VA UNING ISLOM SIVILIZATSIYASI SHAKLLANISHIDAGI O‘RNI

Ramazonov Ozodbek Avazbek o‘g‘li

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Islomshunoslik fakulteti Islomshunoslik yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: “IRCICA” kafedrasi dotsenti ***Shuhrat To‘xtiyev***

Annotatsiya: Ushbu maqolada islom tarixining muhim bosqichlaridan biri bo‘lgan Siyrat davri tahlil qilinadi. Maqolada Payg‘ambar Muhammad (s.a.v)ning tug‘ilishlari, bolalik davrlari, vahiy kelishi, Makka va Madinadagi da’vat faoliyati, hijrat voqeasi hamda islom tarixida muhim o‘rin tutgan Badr, Uhud va Handaq janglari haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, Makka fathining tarixiy ahamiyati hamda Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning vafotlari bilan yakunlangan siyrat davrining islom sivilizatsiyasi rivojidagi o‘rni yoritiladi. Maqolada siyratga oid asosiy tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlarga tayangan holda ushbu davrning tarixiy, diniy va ijtimoiy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *Siyrat, Payg‘ambar Muhammad (s.a.v), vahiy, hijrat, Makka, Madina, Badr jangi, Uhud jangi, Handaq jangi, Makka fathi, islom tarixi.*

Annotation: This article analyzes the *Sīrah* period, which represents one of the most significant stages in the history of Islam. The study examines the birth of the Prophet Muhammad (peace be upon him), his childhood, the beginning of revelation, and his da’wah activities in Mecca and Medina. It also provides information on the Hijrah (migration) and key events in Islamic history, including the Battles of Badr, Uhud, and the Trench. Furthermore, the historical significance of the Conquest of Mecca and the role of the Sīrah period - culminating in the passing of the Prophet (peace be upon him) - in the development of Islamic civilization are discussed. The article is based on primary historical sources and scholarly literature, highlighting the historical, religious, and social importance of this period.

Keywords: *Sīrah, Prophet Muhammad (peace be upon him), revelation, Hijrah, Mecca, Medina, Battle of Badr, Battle of Uhud, Battle of the Trench, Conquest of Mecca, Islamic history.*

Аннотация: В данной статье анализируется период сиры, являющийся одним из важнейших этапов в истории ислама. В работе рассматриваются рождение пророка Мухаммада (мир ему и благословение), его детство, начало ниспослания откровения, а также его призывная деятельность в Мекке и Медине. Освещаются событие хиджры и ключевые события исламской истории, включая сражения при Бадре, Ухуде и у Рва (Хандак). Также рассматривается историческое значение завоевания Мекки и роль периода сиры, завершившегося кончиной Пророка (мир ему и благословение), в развитии исламской цивилизации. Статья основана на основных исторических источниках и научной литературе, раскрывая историческое, религиозное и социальное значение данного периода.

Ключевые слова: *Сира, пророк Мухаммад (мир ему и благословение), откровение, хиджра, Мекка, Медина, битва при Бадре, битва при Ухуде, битва у Рва (Хандак), завоевание Мекки, история ислама.*

KIRISH

Siyrat davriga oid “Ar-Rahiqul mahtum”, “Siyratni anglash”, “Tarixi Muhammadiy” kabi bir qator kitoblar yozilgan. Ushbu asarlar boshidan to oxiriga qadar payg‘ambarimiz muhammad (s.a.v)ning hayotlari haqida bayon qiladi. Siyrat janrida yozilgan eng qadimgi kitoblardan biri Abu Muhammad Abdulmalik ibn Hishomning qalamiga mansub “As-Siyra an-Nabaviyya” kitobidir. Ushbu kitob bizning davrimizgacha yetib kelgan eng qadimgi siyrat kitobi hisoblanadi.

Payg‘ambarimizning dunyoga kelishlari

Payg‘ambarimiz muhammad (s.a.v) milodiy hisobda 571-yilda, qamariy hisobda esa robbiul-avval oyining 12-sida dunyoga keldilar. Bobolari Abdumutalib Makka xalqi orasida hurmati baland shaxslardan edi. Onalari Omina esa Zuhra

qabilasidan bo‘lib, Abdumutalibning do‘sti bo‘lmish Vahbning qizi edi. Otalari Abdulloh Abdumutallibning boshqa farzandlari orasida aslzoda sifatga ega ekanligi bilan ajralib turar edi. Otalari Abdulloh Shom safaridan qaytayotib 25 yoshlarida Yasrib (Madina) shahrida vafot etdilar. Payg‘ambarimiz dunyoga kelmay turib otalaridan ayrildilar. 6 yoshlarida onalari Ominadan ayrildilar va bobolari Abdumutallibning tarbiyasiga o‘tdilar. Ammo ikki yil o‘tib bobolari Abdumutallib vafot etdi, so‘ngra amakilari Abu Tolibning tarbiyasiga o‘tdilar. Payg‘ambarimizning 9 ta amakilari bor bo‘lib, shulardan Abu Tolib, Abu Lahab, Abbos va Hamza ibn Abdumutalliblar Payg‘ambarimizga islomga da’vat amri kelganda hayot bo‘lganlar. 4 ta amakilaridan 2 tasi: Abbos va Hamza (r.a) islom dinini qabul qiladilar. Payg‘ambarimiz Muhammd Mustafo (s.a.v) ga 40 yoshlarida vahiy kela boshladi. Ilk nozil bo‘lgan sura “Alaq” surasi bo‘lib, ilk nozil bo‘lgan oyat esa “Alaq” surasining 1-5-oyatlaridir. O‘z qavmlarini yakka-yagona bo‘lgan Allohga ibodat qilish va butlardan yuz o‘girishga chaqirdilar. Lekin qavmdan aksari odamlar iymon keltirmadilar, aksincha, Payg‘ambarimizga ergashgan barcha mo‘minlarni mashara qilishar, ularga nisbatan zulm qilishar edi. Natijada qanchadan qancha mo‘minlarning qoni to‘kildi, aksar musulmonlar Habashiston tomon hijrat qilishga majbur bo‘ldilar. Keyinchalik esa Madinaga hijrat qilishdi.

Payg‘ambarimizning hijratlari

Payg‘ambarimizning hijratlari milodiiy 622-yilda boshlangan. Ushbu yildan hijriy yil hisobi boshlangan. Madina shahrida da’vat ishlari qiyinchiliklarsiz kecha boshladi va ko‘pchilik aholi islomni qabul qildi.

Mudofaa janglari

a) Badr jangi (milodiy 624-yil, hijriy 2-yil Ramazon oyining 17-kuni)

Ushbu jang islom tarixidagi eng buyuk jang hisoblanadi. Badr jangida musulmonlardan 314 kishi, mushriklardan esa 950 kishi qatnashdi. Shunday bo‘lsa-da ushbu jangda musulmonlarning qo‘li baland keldi.

b) Uhud g‘azoti (milodiy 625-yil, hijriy 3-yil)

Uhud jangining asosiy sababi Badr jangida mag‘lub bo‘lgan mushriklarning mag‘lubiyat alamini musulmonlardan olishni maqsad qilganlari hisoblanadi. Ushbu jangida Quraysh qo‘shiniga Abu So‘fyon boshchilik qilgan. Ushbu qo‘shinning soni 3000 kishi edi, musulmonlardan bu jangda 700 kishigina ishtirok etdi. Ushbu jangda musulmonlar mag‘lubiyatga uchradilar.

c) Handaq jangi (milodiy 627-yil, hijriy 5-yil)

Ushbu jang Shavvol oyining 5-kunida bo‘lib o‘tdi. Quraysh bir oy Madinani qamal qildi va hech qanday natijaga erisha olmadi. Nihoyat Amr ibn Abdivud ismli qahramon boshchiligida Quraysh lashkarlarining bir nechtasi handaqdan o‘tishga muvaffaq bo‘ldi. Ushbu jangda yakkama-yakka olishuv bo‘lib o‘tdi va musulmonlarning qo‘li baland keldi.

d) Makka fathi (milodiy 630-yil, hijriy 8-yil)

Ushbu fath islom tarixidagi eng buyuk fathdir. Musulmonlar 10000 nafar qo‘shin bilan Makkaga kirib borishdi va ushbu fathda ko‘pchilik islomni qabul qildi. Jumladan, Ikrima ibn Abu Jahl, Saffon ibn Umayya, Makkaning boshlig‘i Abu So‘fyon va boshqalar islomni qabul qildilar.

Payg‘ambarimizning vafotlari

Payg‘ambarimiz milodiy 632-yil hijriy 10-yilda 63 yoshlarida bu dunyoni tark etdilar. U zot umrlarini insoniyatni islomga da’vat etish va Alloh taoloning amrlarini yetkazishga bag‘ishladilar. Qabrlari Madina shahrida joylashgan.

Siyrat davrining ijtimoiy-huquqiy ahamiyati

Siyrat davri nafaqat diniy targ‘ibot va tarixiy voqealar majmui, balki ilk islomiy jamiyatning ijtimoiy-huquqiy asoslari shakllangan davr sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Madina davrida shakllangan jamiyat tuzilmasi o‘zining ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali xususiyati bilan ajralib turadi. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v) tomonidan tuzilgan Madina ahdnomasi (Sahifat al-Madina) turli qabila va diniy guruhlar o‘rtasida tinchlik, hamkorlik va o‘zaro hurmat tamoyillarini mustahkamlovchi ilk yozma ijtimoiy-siyosiy hujjatlardan biri

hisoblanadi. Ushbu hujjat orqali musulmonlar, yahudiylar va boshqa guruhlarning huquq va majburiyatlari belgilab berilgan bo‘lib, u zamonaviy konstitutsion tizimlarning dastlabki ko‘rinishlaridan biri sifatida baholanadi. Shu bilan birga, siyrat davrida adolat, tenglik, ijtimoiy himoya va inson qadr-qimmatini ulug‘lash kabi prinsiplar ilgari surilgan bo‘lib, ular keyinchalik islom huquqi (fiqh) va musulmon sivilizatsiyasining rivojida muhim asos bo‘lib xizmat qilgan.

XULOSA

Siyrat davri islom tarixining eng muhim va shakllanish davri hisoblanadi. Ushbu davrda Payg‘ambar Muhammad (s.a.v) tomonidan islom dini asoslari shakllantirildi, musulmon jamiyati barpo etildi va yangi diniy hamda ijtimoiy qadriyatlar tizimi yaratildi. Makka davrida musulmonlar turli qiyinchilik va ta’qiblarga duch kelgan bo‘lsalar-da, Madinaga hijratdan so‘ng islom jamiyati mustahkamlandi. Badr, Uhud va Handaq janglari musulmon jamoasining siyosiy va harbiy jihatdan shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Makka fathidan so‘ng esa islom dini keng hududlarda tarqala boshladi. Natijada siyrat davri nafaqat diniy tarix, balki butun musulmon sivilizatsiyasining shakllanishi uchun muhim tarixiy bosqich bo‘lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abulfido Ismoil Ibn Kasir. As-Siyra an-Nabaviyya. – Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya.
2. Muhammad Said Ramazon Butiy. Siyratni anglash. – Toshkent: Hilol Nashr.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Islom tarixi. 1-kitob. – Toshkent: Hilol-Nashr.